

BAUXAUZ – GERMANIYA MADANIYATINING FENOMENI SIFATIDA

Kultasheva Nigoraxon Daniyarovna

K.Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti,
s.f.f.d. (PhD)

nigora.kultasheva88@gmail.com

Sadikova Sevvara Abdumalikovna

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti,
Libos dizayni kafedrası mudiri

ANNOTATSIYA

Maqolada XX-asrning birinchi yarmi Germaniya madaniyati ko‘rib chiqiladi. Industrializatsiya taraqqiyoti natijasida badiiy loyihalash sohasida yangi mutaxassislar turi paydo bo‘ladi va bu jarayonlar Bauhaus dizayn maktabining tajriba maydonida sodir bo‘ladi. Maqolada olmon badiiy madaniyatining fenomeni sifatida badiiy-pedagogik tizimi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Bauhaus, XX asrning birinchi yarmi Germaniya badiiy madaniyati, muhandis-rassom, dizayn, me‘morchilik, madaniyat sohasida ta‘lim, badiiy ta‘limdagi islohotlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается культура Германии первой трети XX века. За прогрессом индустриализации зарождается новый тип специалистов в области художественного проектирования и это осуществляется в экспериментальной площадке школы Баухауза. В статье проведен анализ художественно-педагогической системы школы, как феномена немецкой художественной культуры.

Ключевые слова: Баухауз, немецкая художественная культура первой трети XX века, инженер-художник, дизайн, архитектура, образование в сфере культуры, реформа художественного образования.

ABSTRACT

The article analyzes the artistic and educational system of the school as a phenomenon of the German culture. Behind the progress of industrialization, a new type of specialists in the field of artistic design is emerging and this is being carried out in the experimental site of the Bauhaus school. The article analyzes the artistic and pedagogical system of the school as a phenomenon of German artistic culture.

Keywords: Bauhaus, German art culture of the first third of the XX century, engineer-artist, design, architecture, culture education, art education reform.

KIRISH

XIX asrning oxirlarida Yevropada Buyuk Britaniya sanoat ishlab chiqarish sohasida, ijodiy kashfiyotlar va tadbirkorlik sohalarida yetakchi davlat edi. Germaniyaning siyosiy rahbarlari ingliz sanoatining yutuqlari sababini aniqlash maqsadida 1896 yilda me'mor German Muteziusni Londonga nemis elchixonasiga madaniy almashish sifatida jo'natishadi. Natijada, me'morning kuzatuvlari asosida 1904 yilda uch tomlik "Ingliz uyi" nomli kitob dunyoga keladi. G.Mutezius unda Britaniyaga iqtisodiy yuksalishni ta'minlagan "sehrli element" – bu "San'at va hunarmandchilik harakati" asoschisi, yetuk mutaxassis, dizayner Uilyam Morris ekanligiga alohida urg'u beriladi. U.Morris 1861 yilda me'mor F.Uebb va prerafaelit-rassomlar Evard Bern-Djonson, Ford Medoks va Dante Gabriel Rossetilar bilan hamkorlikda dizaynerlik kompaniyasini yaratadi. Ularning maqsadi tasviriy san'at va hunarmandchilikni o'zaro uyg'unlashtirgan holda maishiy buyumlarni yuqori mahorat va ijod mahsuloti darajasiga ko'tarish edi. Bularning barchasi texnik taraqqiyotni badiiy ijod bilan bog'lash zaruratini paydo qiladi.

MUHOKAMA

Jadal surat bilan rivojlanayotgan texnik taraqqiyot, madaniyatdagi o'zgarishlar va jamiyatning birlashuvi bu davrda Germaniyani eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shdi. Me'morchilik, hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarishda Germaniya innovatsiyalar markaziga aylandi. Uning yangiliklaridan biri – bu badiiy ishlab chiqarishni hunarmandchilik hamda sanoatga bo'lish sanaladi. Bu ilk marotaba 1906 yilda Drezdendagi "Olmon amaliy san'atining umumiy ko'rgazmasi"da namoyon bo'ldi. Boshqa mamlakatlar bilan sanoat ishlab chiqarish sohalarida kuchli raqobat boshlandi. Germaniya xukumati olmon sanoatini qo'llab quvvatlash bo'yicha jiddiy chor-tadbirlar ishlab chiqadi. Ulardan biri 1907-yilning 7-oktabrida tashkil etilgan "Germaniya badiiy-sanoat uyushmasi"ning (Germaniya Verkbundi). Verkbund nizomida quyidagi jummalarni ko'rish mumkin: "Uyushmaning maqsadi san'at, hunarmandchilik va industriyaning hamkorlikdagi sayi-harakatlari orqali sanoat mahsulotlari sifatini oshirish, shuningdek uni targ'ib etish hamda har tomonlama muammolarini o'rganishdan iboratdir" [1. 165]. Verkbundning faol a'zolari G.Mutezius, P.Berens, A.K. van de Velde Germaniyadagi sanoat mahsulotlarining iste'mol darajasini takomillashtirish yo'lidagi zaruriy chora-tadbirlar masalasida o'zaro hamfikir edilar. Uyushma olmon industriyasi yutuqlarini faol targ'ib etish ishlarini olib borardi. Sanoat sohasida rassom kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilar edi. Birinchi jahon urushi va siyosiy voqealar oqibatida mazkur dasturlarni to'htatib qo'ydi.

Germaniyaning urushdagi magʻlubiyati va 1918 yildagi inqilob kishilarning badiiy-estetik tafakkuri oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatdi. Urushdan keyingi siyosiy, iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay Veymar respublikasi oʻzining rivojlanish yoʻlida toʻxtamadi. Bu rivojlanish modernizm va uning oldidagi qoʻrquv, radikalizm va eski qadriyatlarni saqlab qolish istagi orasidagi ziddiyatlar fonida sodir boʻlar edi. Shunga qaramay Veymarda madaniy rivojlanishni boshdan kechirdi.

Bauhaus (nem. *Bauhaus* – “qurilish uyi”) – 1919 yil nemis meʼmori V.Gropius tomonidan Veymarda asos solingan badiiy loyihalash va qurilish maktabi. Gropiusning gʻoyasiga koʻra Bauhaus “tarqalib ketgan” sanʼat, hunarmandchilik va texnikani “yagona badiiy sanoatga” birlashtirishga, yangicha ilmiy-texnika asosda oʻrta asr qurilish gildiyalari shaklida tashkil etishga qaratilgan edi. Dastlab barcha talabalar hunarmandchilik asoslari, xom ashyo xususiyatlari hamda shakl va chizmasvir nazariyasi boʻyicha olti oylik kursni oʻtashgan. Shundan soʻng ularga ustaxonalardagi ish jarayoniga ruxsat berilgan. Ustaxonada ijodiy va ishlab chiqarish ishlari olib borilar, talabalarning asosiy eʼtibori amaliy mashgʻulotlarga qaratilgan. Talabalarning qobiliyati, ishtiyoqiga qarab ulardan meʼmor, fotosuratchi, rassom-konstruktor, dizaynerlar tayyorlashgan.

V.Gropius oʻziing qarashlarini qoʻllab-quvvatlagan va dadil tajribalar qilishdan choʻchimagan mutaxassislarni tanlashga alohida eʼtibor qaratgan. Turli yillarda bu yerda V.Kandinskiy, P.Kleye, O.Shlemmer, L.Fayninger kabi rassomlar, L.Moxoli-Nad va Y.Itten kabi dizaynerlar faoliyat yuritishgan.

“Bauhaus” tarixi uchta mashhur insonlar boshqaruvini kechirgan. 1919 yilda Valter Gropius maktabga asos solgan boʻlib, u texnika va sanʼatni birlashtirgan holda klassik maʼruzalarni ustaxonalardagi amaliy mashgʻulotlar bilan uygʻunlashtiruvchi yangi taʼlim tizimini kiritdi. Shuningdek, taʼlimning ilk 2 semestrda talabalarga bazaviy fanlar oʻqitilgan, soʻng ustaxonalarda taʼlim davom ettirilgan. Ishlab chiqarishga qaratilgan ustaxonalar nafaqat maktabda pedagogik tizim sifatida faoliyat yuritardi, balki moddiy foyda ham keltirgan. 1928 yilda maktabni Xannes Meyer boshqaradi va taʼlim jarayoniga psixomorfologiya, sotsiologiya, ijtimoiy ekonomika fanlarini qoʻshadi. Agar Gropius rang va shaklni oʻrganishga eʼtibor qaratgan boʻlsa, Meyer va Roe bu nazariy kurslarni foydasiz deb hisoblashgan. Mis va der Roe rahbarligi davrida (1930-1933 yillar) maktab dasturiga chizmasvir fanini, boshlangʻich kursga esa obyektning kontekstda koʻrishni rivojlantirishga qaratilgan vizual mashgʻulotlarni kiritgan. Oʻqituvchilar tarkibida turli vaqtlarda Paul Kleye, Vasiliy Kandinskiy, Oskar Shlemmer, Laslo Moxoy-Nad dars bergan.

Maktab oʻz faoliyatini atrof-muhitda oʻzaro uygʻun buyumlar olamini yaratish orqali jamiyatni qayta qurish mumkin degan utopik gʻoyalar taʼsirida boshladi.

Me'morchilik «o'zaro ijtimoiy muvofiqlik **proobrazi**» sifatida ko'rib, san'at, hunarmandchilik va texnikani birlashtiruvchi ibtido sifatida e'tirof etilgan.



Dessaudagi o'qituvchilarning xonadonlari

Bauhausning yuqori rivojlangan yillari neoromantizm ta'siri bilan belgilangan Veymar davri bilan bog'liq. 1925 yilda Bauhaus Dessauga ko'chib o'tadi va V.Gropius loyihasi asosida qurilgan, funksionalizm me'morchiligi durdonasi hisoblangan inshootga joylashadi. Dessaudagi davr texnik-utilitar tendensiyalarning quchayishi va Bauhausning shaxsiy uslubi shakllanishi davri bo'ldi. Bu uslub aniq shakl, ifodaviy vositalar minimalizmi, xom ashyo va industiral usullarning takomillashuvi bilan tavsiflanadi.

1928 yilda maktab rahbarligini shvetsiyalik me'mor X.Mayer egallaydi. Biroq u tomonidan kiritilgan yangiliklar (ijtimoiy fanlarni o'rganish) talaba va o'qituvchilarning noroziligini uyg'otdi, natijada 1930 yilda Bauhausni nemis me'mori L. Mis Van der Roe boshqaradi. Uning rahbarlik faoliyati muassasaning 1933 yilda natsistlar tomonidan yopilib ketishiga qadar davom etgan.



Bauhaus o'quvchilari tayyorlagan jihozlar dizayni

Biroq Bauhausning ta'lim tizimi va metodi boshqa mamlakatlar tomonidan qabul qilinib, davom ettirildi. Uning g'oyalari esa tasviriy va amaliy san'at (kitob grafikasi, reklamadan to jihoz va maishiy buyumlarga qadar) rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bauhaus makatibining yirik namoyondalari Valter Gropius, Lyudvig Mis Van der Roe, Vasiliy Kandinskiy, Paul Kleye, Oskar Shlemmer, Lionel Fayninger,

Laslo Moxoli-Nad, Yozef Albers, Gerxard Marks, Marsel Bryoyer, Maks Bill, Yoxannes Itten, Xerbert Bayer, Xans Mayer.

Bauxauz ustalari ijodining asosiy tamoyili bu san'at va xunarmandchilikning o'zaro uyg'unlashtirish masalasi edi va me'morchilik bunga yorqin namuna sifatida xizmat qildi. Ular o'z manifestida rassomlar uyushmasini yuqori malakali hunarmandlar laboratoriyasi sifati bilan ta'riflashadi. Bu vaqtlarda avangard maktablari va san'atdagi yo'nalishlar quyidagi shaklda tezislar to'plashgan:

- Endilikda «kasb sifatidagi san'at» yo'q. Rassom va hunarmand orasida farq mavjud emas. Rassom – bu hunarmandning yuqori darajasidir. Har bir rassom uchun mahorat qonunlari bir xildir, ammo fikr ravshanlashuvining kamyob lahzalarida ilohiy marhamat sabab yoki iroda kuchi natijasida misli ko'rilmagan san'at paydo bo'lishi mumkin.

- Ijod va go'zallikka oshuftalik – baxtning muxim shartlaridir. Mazkur muqarrar haqiqatni tan olmaganlar aniq va ravshan ifodani tushunib yetmaydilar: ular yaratgan obraz noaniqligicha qolaveradi, asarlari esa quvonch keltirishga qodir bo'lmaydi.

- Vazifasi qurilish bilan aloqador bo'lgan barcha jamoaviy, iqtisodiy va badiiy muammolarning yechimiga qaratilgan me'mor koordinator bo'lishi kerak.

- Shakl qurilishi bilan bog'liq barcha vazifalar yechimi –xoh u stul, xoh bino, xoh butun shahar yoki xudud tarhi bo'lsin – nafaqat ularning fazoviy-makoniy o'zaro munosabati jihatidan, balki ijtimoiy omillardan iborat xususiyatlari bilan o'zaro muvofiq bo'lishi kerak.

- Har qanday ta'limning haqiqiy maqsadi buyuk amallarga rag'bat uyg'otishdir, afuski ko'p hollarda bu omil yoddan ko'tariladi.

- San'at tarixi va ijodiy san'atning o'zaro aralashtirish mutloq mumkin emas. Rassomning maqsadi — «yangi tartibni yaratish», tarixchining maqsadi emas — o'tmishdagi haqiqatlarni tavsiflash va qayta kashf etishdir [2].

XULOSA

«Bauxauz»ning jahon dizayni taraqqiyotidagi ahamiyati bemisldir. U nafaqat dizayner mutaxassislarni o'qitish ta'limi namunasi edi, balki badiiy konstrukssiyalash va me'morchilikning haqiqiy ilmiy laboratoriyasi bo'ldi. Badiiy his qilish, shakl qurilishi, rangshunoslik borasidagi uslubiy ishlanmalar ko'plab nazariy tadqiqotlarga asos bo'ldi va bugungi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Maktabda loyihalash va ta'lim usullarining obektiv metodlari shakllantirilgan. Shuningdek, XX-asrning 20-yillaridagi avangardistlar, konstruktivistlar va urbanistlarning olamni san'at orqali o'zgartirish g'oyalari maktabda namoyon bo'ldi. 1938-yilda Mis van de Roe tomonidan AQShda Bauxauzni tiklashga qaratilgan urinishlar besamar bo'lganligiga qaramay, “Bauxauz stili” bugunga qadar yashab

kelmoqda. Uning metodikasi, o'quv dasturlarining g'oyaviy mazmuni butun dunyoning zamonaviy ta'lim va badiiy sanoatida keng qo'llaniladi.

REFERENCES

1. Рунге В. Ф. История дизайна науки и техники : учебное пособие : в 2-х кн. Москва : Архитектура-С, 2006. Кн. 1. С. 368.
2. Allabergenova A.B. Dizayn metodologiyasi / O'quv qo'llanma – Tashkent: «Adast poligraf» nashriyoti. 2021. – 273 b.
3. Дросте М. Баухауз, 1919—1933. Реформа и авангард / пер. с фр. Ю. Ю. Котова. Москва : Арт-Родник, 2008. 96 с.
4. Kultasheva N. Bayat Mukhtarov and his plastic innovations. Art and Design: Social Science, - Tashkent. 2022. P. 6-10. <https://scholar.google.com.do/scholar?oi=bibs&cluster=12322791153306519039&btnI=1&hl=en>
5. Мирзаназарова Э. К проблеме изучения исторической военной одежды Узбекистана . Theoretical & Applied Science, 2018.
6. Алимкулова Д. Painting: century tradition. International Enjeneering Journal For Research end ..., 2020.